



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
BUYRUQ

2022-yil "20" sentyabr

Toshkent sh.

176-sonli

**Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni
majburiy aniqlash va baholash
uslubiyotini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi *"Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"*gi PQ-240-sonli qarorining 1-bandi topshirig'iga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan va 3383-raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlarning (keyingi o'rinlarda-davlat tashkilotlari) faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy aniqlash va baholash Uslubiyotini vazirlik va uning tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlarida samarali tashkil etish maqsadida

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan va 3383-raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlarning (keyingi o'rinlarda-davlat tashkilotlari) faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy aniqlash va baholash Uslubiyoti *rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.*

2. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va uning tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy aniqlash va baholash Uslubiyoti *ilovaga muvofiq tasdiqlansin.*

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga:

mazkur buyruq qabul qilingan kundan boshlab O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va uning tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy aniqlash va baholash Uslubiyotini joriy etish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy aniqlash va baholash Uslubiyoti bo'yicha amalga oshirilgan ishlar haqida har chorak yakuni bilan vazirlikka yozma ravishda axborot taqdim qilish vazifalari topshirilsin.

4. Ichki audit va komplayens nazorat boshqarmasi boshlig'i X.Umirzoqov va Yuridik boshqarma boshlig'i R.Sharopov O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va uning tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy aniqlash va baholash Uslubiyotining ijrosi haqida har chorak yakuni bilan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga ma'lumot taqdim qilib borsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari A.Nazarov zimmasiga yuklansin.

Вазир



Ш. Хамраев